

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Qo'lyozma huquqida

UDK: 336.1:336.2

SHODIXONOV SHOHBOZJON ABRORXON O'G'LI

**MAHALLIY SOLIQQA TORTISH TIZIMINI
TAKOMILLASHTIRISH ORQALI MAHALLIY BUDJETLAR
DAROMADLARI BAZASINI MUSTAHKAMLASH YO'LLARI**

70410401– Davlat moliyasi va xalqaro moliya mutaxassisligi bo'yicha

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

D I S S E R T A S I Y A

Ilmiy rahbar:


i.f.f.d., dots. M.J.Bauyetdinov

Toshkent - 2024

Magistrlik dissertasiya ishi Moliya kafedrasida dastlabki himoyadan o'tgan.

_____ -sonli boyonnoma “ _____ ” _____ 2024 y.


Kafedra mudiri: Xudoyqulov X.X.



imzo

sana


Ilmiy rahbar: Bauyetdinov M.J.



imzo

sana

Talaba: Shodixonov Sh.A.



imzo

sana

Dissertasiya Moliya va buxgalteriya hisobi fakultetida 2024

yil“ _____ ” _____ № _____ raqami bilan ro'yxatga olindi.

ANNOTASIYA

Ushbu dissertasiya ishida mahalliy soliqqa tortish tizimini takomillashtirish orqali mahalliy budjetlar daromadlari bazasini mustahkamlash yo'llari o'rganilgan. Shuningdek, mamlakatimizda mahalliy soliqqa tortish tizimining o'ziga xos xususiyatlari, budjet tizimida mahalliy budjetlarning vazifalari va o'rni, budjetlar daromadlari bazasini mustahkamlashning moliyaviy imkoniyatlari nazariy va amaliy tadqiq qilingan. mahalliy budjetlarning daromadlarida mahalliy soliqlarning amaldagi holati, mahalliy budjetlarda daromadlarning shallanishi, mahalliy soliqlar mahalliy budjetlarga tushumlari dinamikasi tahlil qilingan. Mahalliy budjetlar daromadlari barqarorligini oshirishda soliq potensialidan foydalanish masalalari, mahalliy soliqqa tortish tizimini takomillashtirish orqali mahalliy budjetlar daromadlari bazasini mustahkamlash yo'llari bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: budjet tizimi, respublika budjeti, mahalliy budjetlar, mahalliy soliqlar, bilvosita soliqlar, bevosita soliqlar, budjet transfertlari.

ABSTRACT

In this dissertation work, the ways of strengthening the base of local budget revenues by improving the local taxation system have been studied. In addition, specific features of the local taxation system in our country, the tasks and role of local budgets in the budget system, and the financial possibilities of strengthening the revenue base of the budgets were theoretically and practically researched. The current state of local taxes in local budget revenues, revenue stagnation in local budgets, the dynamics of local tax revenues to local budgets are analyzed. Proposals and recommendations have been developed on issues of using the tax potential to increase the stability of local budget revenues, ways to strengthen the local budget revenue base by improving the local taxation system.

Key words: budget system, republican budget, local budgets, local taxes, indirect taxes, direct taxes, budget transfers.

MUNDARIJA

Annotasiya.....	3
Mundarija.....	5
Keltirilgan jadvallar ro'yxati.....	7
Keltirilgan rasmlar ro'yxati.....	7
Keltirilgan qisqartmalar ro'yxati.....	8
I BOB. KIRISH.....	9
1.1. Dissertasiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.....	10
1.2. Tadqiqot maqsadi va vazifalar.....	11
1.3. Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari.....	12
1.4. Tadqiqot ob'yekti va predmeti.....	13
1.5. Tadqiqot natijalarining ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati.....	13
1.6. Dissertasiya tarkibining qisqacha tavsifi.....	14
II BOB. ADABIYOTLAR SHARHI.....	16
2.1. Kirish.....	16
2.2. Mavzuga oid ilmiy-amaliy qarashlar sharhi.....	17
2.3. Mavzuga oid mahalliy me'yoriy-huquqiy xujjatlar sharhi.....	20
2.4. Xulosa.....	23
III BOB. METODOLOGIYA.....	25
3.1. Tadqiqot dizayni.....	25
3.2. Ma'lumotlarni to'plash jarayoni.....	25
3.3. Tahlil uchun qo'llanilgan usullar.....	26
3.4. Tadqiqotni o'tkazish uchun zarur sharoitlar.....	26
3.5. Tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammolar va ularning yechimi.	26
3.6. Tadqiqotdan kutilayotgan natijalar.....	28
IV BOB. TAHLIL VA NATIJALAR.....	29
4.1. Mahalliy budjetlar daromadlari bazasini mustahkamlashda mahalliy soliqqa tortish tiziminining amaldagi holati tahlili	29
4.2. Mahalliy budjet daromadlarida mahalliy soliglar tizimi tahlili	45

4.3. Tahlillardan olingan natijalar	61
V BOB. XULOSA	64
5.1. Tadqiqot savoliga tegishli natijalarning qisqacha ifodasi.....	64
5.2. Tadqiqotning asosiy taklif va tavsiyalari.....	64
5.3. Tadqiqot cheklovlari va kelgusi tadqiqot uchun takliflar.....	66
Foydalanilgan adabiyotlar	68

I-BOB. KIRISH

Jahon iqtisodiyotida ro‘y berayotgan beqarorlik va tebranishlar sharoitida mamlakatlar amaliyotida yillik budjetni shakllantirishda soliq tushumlarini prognozlashning ahamiyati oshib bormoqda. Soliq tushumlarini prognozashtirish fiskal harakatlar barqarorligi va tashqi qarzdagi muammolarni hal qilish uchun fiskal siyosatni muvozanatlash holati to‘g‘risidagi ma‘lumot manbai hisoblanadi. Davlat budjeti xodimlari milliy assotsiatsiyasining 2022 yil kuzgi hisobotida 2020 va 2021 moliyaviy yillarni birlashtirganda umumiy jamg‘armaning umumiy daromadlari pirovardida pandemiyadan oldingi prognozlarga qaraganda 2,2 foizga yuqori bo‘lganligi aniqlandi. Hozirgi davrda budjetni aniq ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar va istiqbolli baholashlar asosida rivojlantirishning maqbul yo‘llarini ishlab chiqish va asoslash kabi masalalar mavzuning dolzarbligini oshirmoqda.

Mamlakatimizda iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish sharoitida ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha sohalarida bo‘lgani kabi moliya tizimida ham qator islohotlarni amalga oshirish hozirgi kundagi dolzarb masalalardan hisoblanadi. Moliya tizimida olib borilayotgan islohotlarda davlat budjeti va mahalliy budjetlar daromadlari barqarorligini oshirish, ularni shakllantirishning samarali mexanizmini joriy etish hamda budjet mablag‘laridan oqilona foydalanish, budjetlararo munosabatlarni takomillashtirish, budjet intizomiga rioya qilinishi ustidan nazoratni kuchaytirish, mahalliy budjetlarni hududlarning ijtimoiy- iqtisodiy rivojlanishidagi tutgan o‘rnini oshirish masalalari turadi.

Mahalliy budjetlar daromadari barqarorligini oshirish va ulardan samarali foydalanish hozirgi kundagi dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Mahalliy budjetlar davlat budjetining asosini tashkil etganligi uchun mahalliy budjetlar daromadlarni oshirish mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojiga hissa qo‘shish bilan bir qatorda hududlar iqtisodiy rivojlanishida muhim o‘rin tutadi.